

**HOMILA ICHI INFEKTSIYASINING SABABLARI****Madraximova N***Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti***Abduraxmonova Yorqinoy***2- son Farg'ona Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

**Mavzu dolzarbliyi:** Hozirgi vaqtida ko'pchilik jahon mamlakatlari mutaxassislarining asosiy masalalaridan biri bu ona salomatligini oshirish hamda soglom bola dunyoga kelishini ta'minlashga qaratilgan. Garchan hozirgi zamonda, qo'zg'atuvchilarni o'rganishni, ularni aniqlashni juda ko'p ilmiy amaliy tekshirish usullari bo'lsada, perinatalgiya, neonatologiya va pediatriya sohalarida homila ichi infektsiyalanishi hamda homila ichi infektsiyasi hamon dolzARB muammo bo'lib qolmoqda .

Homila ichi infektsiyasi bu tug'ma infektsiya bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida homila ichi infektsiyalariga qizilcha, xlamidioz, mikoplazmoz, toksoplazmoz, oddiy herpes virusi hamda sitomegalovirusli infektsiyalar misol bo'la oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, RFda har yili tug'ma qizilcha bilan 400 ta holat borligi kuzatilmoxda . RFda tug'ma tsitomegalovirusli infektsiyaning uchrash soni ma'lum emas, AQShda esa tsitomegalovirusli infektsiya barcha tug'ilgan bolalarning 1% ni, oddiy herpes virusi bilan zararlanganlar 1000 tug'ilgan chaqaloqdan 1sida, parvovirusli infektsiya bilan 400 ta tug'ilgan chaqaloqdan 1sida uchraydi.

Ma'lumki, homila ichi infektsiyalari o'zining og'ir kechishi hamda xavfli oqibatlarga olib kelishi bilan ajralib turadi. O'lim tug'ma toksoplazmozda 12% ni, oddiy herpes virusi bilan zararlanishda 90% ni, enterovirusli infektsiyalarda 80% ni, tug'ma qizilcha bilan 100% ni tashkil qiladi. Homila ichi infektsiyasi har doim ma'lum klinik simptomlar bilan namoyon bo'ladi .

Shunday shartli-patogen qo'zg'atuvchilar borki ular onadan homilaga, so'ng chaqaloq organizmiga o'tadi va uzoq vaqt mobaynida ko'payadi. Ular perinatal va neonatal davrda turli xil patologik holatlarga olib keladi, bu esa oqibatda tez-tez kasallanib turuvi bolalar guruhini kelib chiqishiga sabab bo'ladi .

Tekshiruv maqsadi. Chaqaloqlarda, onaning somatik salomatligi bilan bog'liq, perinatal patologiyani kelib chiqish sababini hamda shartli-patogen mikroorganizmlarni etiologik ahamiyatini o'rganish.

Material (manba) va tekshiruv usullari. Perinatal patologiyani hamda homila ichi infektsiyalanishi sababini aniqlash uchun, Samarqand shahar viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining chaqaloqlar patologiyasi bo'limiga yotqizilgan 140 ta chaqaloq tekshiruvdan o'tkazildi. Perinatal patologiyada mikroblarning kelib chiqish sababini aniqlash maqsadida, bakteriologik tekshiruvlar uchun chaqaloqlardan qon, tomoqdan shilliq, yiring hamda axlat olindi. Shuningdek statistiko-anamnestik va

qisman bakteriologik tekshiruvlar chaqaloqlar onalari orasida ham o'tkazilgan. Statistik ishlov natijalari Styudent kriteriysi bo'yicha hisoblangan ( $p < 0,05$ ).

Tekshiruv natijalari va ularning tahlili. Olingan natijalarga ko'ra, chaqaloqlar patologiya bo'limiga yotqizilgan 140 ta tekshirilgan chaqaloqdan 106 (75,7%) tasi bir haftagacha hayot kuniga ega bo'lgan. Qolgan chaqaloqlar esa kech neonatal davr bilan yotqizilgan.

Turli xil patologiyaga ega bo'lgan, erta neonatal davr bilan yotqizilgan chaqaloqlar ante - va intranatal infektsiyalanishga ega ekanligini ko'rsatadi. Chaqaloqlar kasalliklarining nozologik shakllarini tahliliga qaraganda, ularda diareya, sepsis, neonatal pnevmoniya va boshqa yiringli-yallig'lanish kasalliklari borligi aniqlangan.

Ko'rinib turibdiki, diareya yuqori ko'rsatkichlar bilan boshqa patologiyalardan ustun kelgan. Ikkinci o'rinni sepsis egallagan va 140 ta chaqaloqdan 29 (20,7%) tasida aniqlangan. Umumiy hisobda sepsis bilan birga yiringli-yallig'lanish kasalliklari 67 (47,8%) ta chaqaloqda aniqlangan. Ma'lumki, yuqorida sanab o'tilgan kasalliklardan sepsis, neonatal pnevmoniya va diareya perinatal patologiyada chaqaloqlar orasida hetakchi ba'zida, asosiy o'lim sababchisi bo'lib qolgan. Shuning uchun ham klinik simptomlarni aniqlash va mikroblarning etiologiyasini o'rganish perinatolgiyada yuqori amaliy izlanishga sabab bo'la oladi.

Teshiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, axlat tarkibida grammusbat mikroorganizmlar etakchi o'rinni egallagan. Sepsis va yiringli-yallig'lanish kasalliklarida grammanfiy tayoqchalar hamda streptokokklar o'z o'rnini stafilokokklarga bergen. O'y lashimizcha, yiringli-yallig'lanish kasalliklarining etiologiyasida bunday jarayonlar turli xil faktorlar ta'sirida ro'y bergen, muhimi esa stafilokokklarning yillar mobaynida ko'pchilik antibiotiklarga rezistent bo'lib qolganidir.

Antibiotiklarga sezgirlikni va patogen xususiyatlarni aniqlash uchun har bir probadan 1-2 shtamm patologik material stafilokokklar ajratildi. Jami 150 ta shtamm ajratildi va o'rganildi. Ularning barchasi gemolitik, tillorang pigmentli hamda 150 ta shtammdan 96 (64%) tasi plazmani koagulyasiya qilish xususiyatiga ega edi.

Stafilokokklar shtammlarining antibiotiklarga sezgirligi amikasin, amoksiklav, sefazolin va siprofloksosinga nisbatan juda chidamli ekanligi aniqlandi. 150 ta shtammdan amikasinga nisbatan 20 (13,3%) ta, amoksiklavga - 10 (6,6%) ta, sefazolinga - 17 (11,3%) ta va siprofloksosinga - 33 (22%) ta shtamm yuqori sezgirligi belgilandi. Qolgan shtammlar o'rtacha va past sezgirlikda edi. Stafilokokklar shtammlari gentamisinga (60 - 40%), sefotaksimga (45 - 30,1%) va seftriaksionga (61 - 40,6 %) yuqori sezgirlikka ega ekanligi isbotlandi. Shunday qilib, stafilokokklarga nisbatan eng samarali antibiotiklar gentamisin, sefotaksim, seftriakson bo'lib hisoblanadi.

Perinatal patologiyaga chalingan chaqaloqlar onalarining anamnezi tahlil qilinganda, ularda 84% anemiya borligi, homiladorlik vaqtida 34 onadan 24 tasida gripp, 17 tasida toksikoz, homila tushish xavfi 11tada va nefropatiya 7 ta onada borligi

aniqlandi. TORCH infektsiyaga chalingan onalar soni – 4 ta, pielonefrit bilan – 5 ta. Fiziologik tug'ruq - 17 tada, vena ichiga va mushak orasiga stimulyasiya – 7 tada, kesar kesish operasiyasi – 4 ta onada kuzatilgan. Qog'onoq suvlarining 13ta onada iflos bo'lган.

Tibbiyat xodimi, onalardan va chaqaloqlardan ajratilgan Candida, Streptococcus, Klebsiella, E.Coli qo'zg'atuvchilarining biologik xususiyatlari asosida infektsiya sababchisini aniqlash mushkul, chunki ular barcha manbalarda identik, ya'ni o'xshash. Ammo, stafilokokklarning fagosezgirligini o'rganish, perinatal patologiyada, chaqaloqlarda infektsiya manbaini aniqlashga imkon beradi.

Shu maqsad bilan biz onalar so'rg'ichlaridan stafilokokklarning 56 ta shtammini va chaqaloqlarning turli xil o'choqlaridan 96 ta shtammni ajratdik, hamda fagotipli mosligini aniqladik.

Fagotipli moslik natijalariga ko'ra, ko'pchilik stafilokokklar ekmalari I va III guruh faglari bilan lizis bo'lган. Onalar va chaqaloqlardan ajratilgan stafilokokklar shtammlarining fagotipli mosligi, alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, onalarning so'rg'ichlaridan va chaqaloqlarning turli xil o'choqlaridan ajratilgan stafilokokklar fagopeyzaji juda mos keldi va ular orasida eidemik fagotiplardan 80, 81, 83a ustunligi bilan ajralib turdi.

Ushbu holat shuni taqozo etadiki, tug'ruqxona sharoitida chaqaloqlar perinatal patologiyasini kelib chiqishida, onalarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

#### Xulosa

1. Yuqoridagilarni inobatga olib shuni aytish mumkiniki, anemiya, pielonefrit, virusli infektsiyalar onalar organizmining tabiiy himoya vositalarini pasaytiradi, homilaninig immun statusini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va perinatal patologiyani kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

2. Perinatal patologiyada birinchi o'rinda diareya, keyingisida sepsis va pnevmoniya turadi. Ularni kelib chiqishida esa, grammusbat stafilokokklar alohida o'rinni egallaydi.

3. Onalar va chaqaloqlardan ajratilgan stafilokokklar fagotipining mos kelishi, chaqaloqlarni turli xil infesiyalar bilan zararlanishida, onalar asosiy infektsiya manbai ekanligini isbotlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Касохов Т.Б., ШляйхерА.Н., Мерденова З.С., Битакова М.Р., Дзгоева И.С. Особенности показателей иммунного статуса у новорожденных недоношенных детей с инфекционно-воспалительными заболеваниями. //Российский вестник перинатологии и педиатрии - 2015; №3; Б.98.

2. Лобзин Ю.В., Васильев В.В., Скрипченко Н.В. ва бошқ. Актуальные вопросы врожденных инфекций в России. Журн.инфектол - 2012; 2: 2: 14 – 24. (Lobzin Y.V., Vasilyev V.V., Skripchenko N.V. et al. Actual aspects of congenital infections in Russian Federation. Zhurn.infektol - 2016; 2: 2: 14-24).

3. Маланчева Т., Зиатдинова Н., Ахмадиева Л. Проблема часто болеющих детей на современном этапе. Фармацевтический вестник. - 2017, №11, 112-бет.
4. Мельникова И.М., Мизерницкий Ю.Л., Марушков В.И., Доровская Н.Л. Клинические и социальные аспекты часто болеющих детей. Здоровье и здоровый образ жизни: состояние и перспективы (медицинско-психологические, социальные, правовые и экологические аспекты). Смоленск. - 2015, 219-бет.
5. Ортыкбаева Н.Т., Сирожиддина Х.Н. Абдухалик-Заде Г.А. Часто встречающиеся внутриутробные инфекции новорожденных. Журнал гепатогастроэнтерологических исследований. ISSN 2181-1008. DOI 10.26739/2181-1008. №3.1 (том 11) 2021